

## YETUKLIK DAVRI INQIROZING AHMIYATI

**Latipova Umida Yusufboyevna,**

Urganch davlat universiteti,

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsent v.b

*E-mail:* [ulatipova933@gmail.com](mailto:ulatipova933@gmail.com)

Tel.: +998975130486

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yetuklik davrida inson hayotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan inqirozlarning fiziologik, ijtimoiy psixologik mezonlari tahlil qilingan. Yetuklik davriga oid ilmiy nazariy va uslubiy mushohadalar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yetuklik davri, inqiroz, rivojlanish, o‘z-o‘zini anglash, egoistik intilish, o‘z-o‘zini takomillashtirish.

**Аннотация:** В этой статье анализируются физиологические, социально-психологические критерии возможных кризисов в жизни человека в зрелом возрасте. Приведены научные теоретические и методологические рассуждения о зрелости.

**Ключевые слова:** зрелость, кризис, развитие, самопознание, эгоистические стремления, самосовершенствование.

**Annotation:** This article analyzes the physiological, socio-psychological criteria of possible crises in a person’s life in adulthood. Scientific theoretical and methodological considerations about maturity are given.

**Key words:** maturity, crisis, development, self-knowledge, selfish aspirations, self-improvement.

G‘arb psixologiyasida yetuklik davridagi inqirozlarni o‘rganish bu yosh davridagi rivojlanishni tahlil qilishning asosiy yondashuvlaridan biridir[1].

Ko‘proq shaxsiy o‘sishlar ro‘y beradigan yosh davrlarini ajratish mumkin: 20 yoshlar atrofida, 30 yoshlar atrofida (28-34), 40-45, 55-60 yoshlarda va nihoyat keksalik davrida. Yetuklik davrida inqirozlarning kechishi, davomiyligi shaxsiy hayotdagi sharoitlarga bog‘liqdir. Bu yosh davrida rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi o‘shiga va o‘z-o‘zini takomillashtirishga ichki intilish hisoblanadi. Inqirozni keskinlashtiradigan sharoitlar sirasiga sog‘liqning to‘satdan o‘zgarishi (kutilmagan kasallik, uzoq kasallanish, garmonal o‘zgarishlar), ijtimoiy va sivosiy hodisalar talablarning sharoitninh va ijtimoiy kutilmalarning o‘zgarishi va b.) kirishi mumkin[2].

Endi bevosita ushbu davrdagi inqiroz tushunchasini keltirib chiqaruvchi mezonlarga oid yondashuvlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Amerikalik olim Patrik Byukenen o'zbekchaga tarjima qilinganda «G'arbning o'limi» deb nomlangan kitobida yaxlit bir millatlar va xalqlar taqdiriga aloqador bo'lgan voqealarni: jamiyat ma'naviyatidagi inqirozlar, jumladan, oila va nikoh, tug'ilish va aholining tabiiy o'sishi borasidagi inqirozlarni tahlil qilar ekan, bu borada jamiyat a'zolarida kuzatilayotgan salbiy xulq-atvorlardan biri bo'lgan egoizmning jiddiy ta'sirini ko'rsatib o'tadi. R. Byukenenning fikricha, jamiyatda borgan sari birdan boyib ketish, to'kin hayotga erishish kabi egoistik intilishga ega bo'lgan kishilar soni ortib bormoqda, bu esa jamiyatda mavjud qadriyatlarga nisbatan munosabatlarda jiddiy inqirozni keltirib chiqarmoqda deya ta'kidlaydi[3].

Inson hayotining "Ikkinchi yarmiga" K. Yung ham juda qiziqqan. Hayotning o'rtasini u "ruhning chuqur va qiziqarli o'zgarishlari" ro'y beradigan kritik davr sifatida qaragan. Yetuklik davrida inson o'z-o'zini anglashi K. Yungning ta'biri bilan aytganda "individualizatsiyani" amalga oshirishi zarur[4].

S. Xollning talqinicha, bu davrlar "bo'ron va tazyiqlar", ichki va tashqi nizolar (ziddiyatlar)dan iborat bo'lib, odamda individuallik tuyg'usi" vujudga keladi. Yosh davrlarini tabaqalashning bu turi o'z navbatida tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o'taydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas[5].

Yu. N. Kulyutkin esa o'z tadqiqotlarida bir xil yosh davridagi odamlarda har xil jarayonlar, holatlar, xossalar, xususiyatlarning o'sishi, o'zgarishi baravar emas, balki ulaming birovda oldin xotira, keyin tafakkur, boshqa birovda, aksincha, rivojlanishini, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisini jadal sur'at bilan o'stirishim uqtiradi[5].

Bundan ko'rinib turibdiki inson hayotidagi inqirozlar, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik bir xil mezon ostida emas balki individualdir.

Levinsonning fikricha, o'tish davrlarida inson stresslarni boshdan kechiradi, chunki bu davrda maqsadlar, qadriyatlar, hayot tarzi qayta quriladi va qayta baholanadi[2].

Amerikalik olim G. Shixi, Levinsonning tadqiqotlaridan il-homlanib, shunday izlanishlarni ayollarda o'tkazadi. Uning tadqiqotlari ham Levinson natijalarini tasdiqladi[1].

Ushbu tadqiqotga ko'ra 30 yoshlar - o'rta yetuklik, «oltin yoshga» o'tish yuqori darajada ishchanlik davri. 30 yosh inqirozi — to'plangan tajriba asosida hayotiy rejalarni korreksiya qilish vazifalari bilan bog'liq, kasbiy faoliyat va oilada tartibli va oqilona hayot strukturasi yaratish bilan bog'liqdir. Yoqimsiz hislarni bartaraf

etishga intilgan inson ilgarigi tanlovlari — turmush o‘rtoq, karyera, hayotiy maqsadlarini qayta baholaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki inson hayotining har bir bosqichi o‘ziga xos inqirozlar bilan kichadi. Bu inqirozlar shaxsning jismoniy, fiziologik, ijtimoiy shart-sharoitlari va albatta uning ichki ruhiy holatlari bilan ham bevosita aloqador hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шихи Г. Возрастные кризисы. Ступени личностного роста. СПб. 1999.
2. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya darslik /— Toshkent: « O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.
3. Ontogenez psixologiyasi: Darslik I N. Ismoilov, D. Akbarov; - T.: “Ta’lim”, 2015. - 168 b.
4. Юнг К. Проблема души нашего времени. —М.: 1993.С.467.
5. E. G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:”NIF MSH”, 2020, 288 bet.